

O'QUVCHILARDA DEVIANT XULQ-ATVORNING SHAKLLANISH OMILLARI VA UNI KORREKSIYA QILISHNING NAZARIY HAMDA AMALIY ASOSLARI

Gaparova Umida Abdurashidovna

Toshkent viloyati Bekobod tumani

1- sonli umumta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, deviant xulq-atvorning oldini olish, uni korreksiya qilishning nazariy va amaliy asoslari, maktab psixologi, pedagoglar hamda ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: deviant xulq-atvor, o'quvchi, psixologik korreksiya, profilaktika, ijtimoiy moslashuv, maktab psixologi, oilaviy muhit, agressivlik, psixologik diagnostika, emotsional intellekt.

KIRISH

Deviant xulq-atvor jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar majmuasidir. Maktab yoshidagi o'quvchilarda bunday xulq-atvorning namoyon bo'lishi nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki ta'lim jarayoni va ijtimoiy munosabatlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli deviant xulq-atvorning shakllanish omillarini aniqlash va uni bartaraf etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir. Deviant xulq-atvorning shakllanishiga oilaviy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi nizolar, ota-onalarning befarqligi, noto'g'ri tarbiya usullari, nazoratning sustligi yoki aksincha, haddan tashqari qattiqqo'llik bolalarda salbiy xulq-atvorning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Mehr va e'tiborning yetishmasligi esa o'quvchining o'zini jamiyatdan chetda his etishiga olib keladi.

Maktab muhiti ham deviant xulq-atvorning shakllanishida muhim omillardan biridir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi salbiy munosabatlar, tengdoshlar tomonidan rad etilish, bulling, o'quvdagi muvaffaqiyatsizliklar hamda maktabdagi psixologik muhitning nosog'lomligi o'quvchida tajovuzkorlik, intizomsizlik va boshqa salbiy xatti-harakatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Psixologik omillar qatoriga emotsional beqarorlik, past o'zini baholash, impulsivlik, xavotir, frustratsiya va stressga chidamlilikning pastligi kiradi. Bunday o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiynaladilar, muammolarni konstruktiv yo'l bilan hal qilish ko'nikmalariga yetarli darajada ega bo'lmaydilar.

Nazariy jihatdan deviant xulq-atvorni tushuntirishda ijtimoiy o'rganish, kognitiv va ekologik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, salbiy xulq-atvor kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Ekologik yondashuv esa o'quvchi rivojlanishiga oila, maktab, tengdoshlar va keng ijtimoiy muhitning o'zaro ta'sirini asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Deviant xulq-atvorni korreksiya qilishning amaliy asoslari psixologik diagnostika, individual va guruhviy maslahatlar, psixokorreksion mashg'ulotlar hamda profilaktik tadbirlarni o'z ichiga oladi. Maktab psixologi o'quvchilarning psixologik holatini o'rganib, ularning ehtiyojlariga mos korreksion dasturlar ishlab chiqadi. Kognitiv-xulqiy terapiya elementlari, art-terapiya, o'yin terapiyasi, kommunikativ treninglar va emotsionalarni boshqarishga qaratilgan mashg'ulotlar ijobiy natija beradi.

Profilaktik ishlarning samaradorligi oila, maktab va mahalla hamkorligiga bog'liq. Ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, pedagoglarning individual yondashuvni qo'llashi, o'quvchilarda huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat va sog'lom turmush tarzini shakllantirish deviant xulq-atvorning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Deviant xulq-atvorli shaxs deganda, odatda, jamiyatda qabul qilingan axloqiy va ijtimoiy me'yorlarga zid harakat qiluvchi, o'z xatti-harakatlari bilan yaqinlari va atrofdagilarga ruhiy yoki jismoniy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan shaxs tushuniladi. Bunday xulq-atvor shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari buzilishi natijasida shakllanadi va uning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiyada shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatlar odatda beshta asosiy shaklda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Bular moslashish, qarshilik ko'rsatish, to'qnashuvga kirishish, mavjud vaziyatdan chekinish hamda jamiyat talablarini mensimaslik kabi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu munosabat shakllari shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar va individual psixologik xususiyatlariga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Intellectual va psixologik jihatdan yetuk shaxslar odatda mavjud ijtimoiy muhitga moslashish yo'lini tanlaydi. Biroq ayrim insonlar jamiyatdagi me'yor va qadriyatlarni qabul qilmay, ularni o'zgartirishga intiladi. Ular o'z qarashlarini ustun qo'yib, mavjud tartiblarni inkor etishi yoki ularga qarshi faoliyat olib borishi mumkin. Bunday holatlarda shaxs va jamiyat o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Mazkur qarama-qarshilik ayrim hollarda delinkvent yoki kriminal xulq-atvor shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Ba'zi vaziyatlarda esa shaxs atrofdagi voqelikni noto'g'ri idrok etadi yoki uni subyektiv ravishda buzib baholaydi. Ruhiy buzilishlar, psixik kasalliklar yoki emotsional muammolar insonning boshqalar xatti-harakatlarini to'g'ri tushunishiga to'sqinlik qiladi. Natijada uning jamiyat bilan sog'lom munosabatlarni shakllantirish imkoniyati cheklanadi. Borliqni salbiy baholovchi ayrim shaxslar jamiyatga moslashishni istamaydi yoki bunga qodir emasligini his qiladi. Ular jamiyatni adolatsiz, konservativ yoki inson manfaatlariga zid deb hisoblab, ijtimoiy

me'yorlardan chekinishga moyillik bildiradi. Ayrim hollarda esa shaxs jamiyat talablarini inkor etib, faqat o'zining ichki dunyosi va shaxsiy manfaatlari bilan yashashni afzal ko'radi. Bunday holatda u jamiyat bilan faol to'qnashuvga kirishmaydi, biroq ijtimoiy hayotdan ma'lum darajada ajralib qoladi.

Hozirgi kungacha olimlar deviant xulq-atvorning yagona va mukammal tasnifini yaratishga erisha olmaganlar. Buning asosiy sababi mazkur tushunchaning murakkabligi va fanlararo xususiyatga ega ekanligidir. Deviant xulq-atvor psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, huquqshunoslik va psixiatriya fanlarida turli nuqtai nazardan o'rganiladi. Shu bois ushbu atama turli ilmiy yo'nalishlarda o'ziga xos mazmunda talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda deviant xulq-atvor ikki asosiy ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, u shaxsning jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy yoki huquqiy me'yorlarga zid bo'lgan individual xatti-harakatlarini ifodalaydi. Ikkinchidan esa deviantlik jamiyat miqyosida ommaviy va nisbatan barqaror tus olgan ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Deviant xulq-atvorni turli mezonlar asosida guruhlariga ajratish mumkin. Jumladan, uning ommaviy yoki individual xarakterga egaligi, ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi, subyektning kimligi, faoliyat sohasi, davomiyligi hamda qaysi ijtimoiy me'yorlarning buzilganligiga qarab tasniflanadi. Ushbu yondashuv deviant xulq-atvorning turli shakllarini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotchilar shaxsning jamiyat bilan munosabatlari to'rt asosiy ko'rinishda namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Bular me'yoriy xulq-atvor, ijtimoiy-psixologik moslashuv, deviant xulq-atvor va huquqbuzarlikdir. Ushbu bosqichlar shaxsning jamiyat talablariga moslashish darajasini ifodalaydi. Deviantlik odatda ikki katta guruhga ajratiladi. Birinchi guruh psixik buzilishlar bilan bog'liq bo'lib, bunda shaxsda ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar kuzatiladi. Ikkinchi guruh esa jamiyatning axloqiy me'yorlaridan chetga chiqish bilan bog'liq bo'lib, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishalik, jinoyatchilik, suitsidal xatti-harakatlar va boshqa ijtimoiy patologiyalarni o'z ichiga oladi. Ilmiy manbalarda deviant xulq-atvor nostandart fikrlash va faoliyat, destruktiv xatti-harakatlar hamda ijtimoiy me'yorlarning buzilishi natijasida shaxsning jamiyatdan uzoqlashishi va ijtimoiy tanazzulga yuz tutishi bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, deviant xulq-atvorli bolalar nafaqat o'zlarining rivojlanishiga, balki ota-onalari va yaqinlarining ruhiy holati hamda ijtimoiy faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar ko'pincha kuchli ruhiy zo'riqish, xavotir va tushkunlikni boshdan kechiradilar.

Shuningdek, deviant xulq-atvor kuzatiladigan oilalarda psixologik muhitning izdan chiqishi tez-tez uchraydi. Ota-onalarda asabiylik, qo'pollik, umidsizlik, tajanglik va boshqalarga nisbatan salbiy munosabatlarning kuchayishi kuzatiladi. Bunday

sharoit esa bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashda nafaqat ularning o'ziga, balki ota-onalariga ham psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish muhim profilaktik choralar qatoriga kiradi. Ilmiy tadqiqotlarda ota-onalarning farzandidagi deviant xulq-atvorni qabul qilish jarayoni bir necha psixologik bosqichlarda kechishi qayd etiladi. Ushbu bosqichlar har bir oilada turlicha davom etishi mumkin bo'lsa-da, ularning umumiy mazmuni o'xshashdir.

Birinchi bosqichda ota-onalar farzandidagi deviant xulq-atvor belgilarini tan olishni istamaydilar. Ular kuzatilayotgan salbiy holatlarni bolaning yosh xususiyatlari, tajribasizligi yoki vaqtinchalik qiyinchiliklari bilan izohlashga harakat qiladilar. Muammo inkor etilgan bo'lsa-da, ota-onada xavotir va shubha hissi asta-sekin kuchaya boshlaydi.

Ikkinchi bosqichda deviant xulq-atvorning mavjudligini inkor etish imkonsiz bo'lib qoladi. Bu davrda ota-onalarda kuchli ruhiy tushkunlik, xavotir, ojizlik va umidsizlik hissi yuzaga keladi. Ayrim hollarda ular vaziyatni mo'jizaviy yo'l bilan hal etishga umid bog'lay boshlaydilar.

Uchinchi bosqichda ota-onalar muammodan chiqish yo'llarini izlay boshlaydilar. Aynan shu davr psixologik yordam ko'rsatish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi, chunki ota-onalar mutaxassis tavsiyalarini qabul qilishga nisbatan tayyor bo'ladilar.

To'rtinchi bosqichda ota-onalar vaziyatni real holatda qabul qiladilar hamda psixolog, pedagog yoki boshqa mutaxassislarga murojaat qilish muammoni hal etishning eng maqbul yo'li ekanligini anglaydilar. Natijada farzandni ijtimoiylashtirish va xulq-atvorini korreksiya qilish bo'yicha amaliy ishlar boshlanadi.

Beshinchi bosqichda ayrim ota-onalar 7barcha e'tiborini faqat farzandining muammolarini hal qilishga qaratib, o'zlarining kasbiy faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy hayotini ikkinchi o'ringa qo'yishlari mumkin. Bunday holat esa ularning ruhiy salomatligi va hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oltinchi bosqichda psixolog ota-onalarga farzandni davolash, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish bilan bir qatorda, o'zlarining shaxsiy, oilaviy, kasbiy va ijtimoiy hayotini ham muvozanatda olib borish zarurligini tushuntiradi. Chunki ota-onaning ruhiy barqarorligi bolaning ijobiy rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir.

Oilalarda psixokorreksion ishlarni samarali tashkil etish uchun kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday faoliyat oilaga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish, bolalarga psixologik yordamni yo'lga qo'yish, ota-onalar va farzandlarga tibbiy-psixologik-pedagogik maslahatlar berish, xulq-atvordagi og'ishlarni aniqlash uchun psixodiagnostik tadbirlarni o'tkazish, individual korreksion

dasturlarni ishlab chiqish, profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda oila va bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tizimli ishlarni o'z ichiga oladi.

Notinch oilalar bilan ishlash jarayonida oiladagi psixologik muhit, ota-onalarning farzand tarbiyasiga munosabati va salbiy omillar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish maqsadida maslahatlar, seminarlar va psixologik treninglar tashkil etiladi. Bunday tadbirlar oilaviy munosabatlarni sog'lomlashtirish hamda bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Insonning xulq-atvori va psixologik xususiyatlari qadim zamonlardan buyon olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Turli davrlarda faoliyat yuritgan mutafakkir va tadqiqotchilar shaxsning tug'ilishidan boshlab shakllanishi, rivojlanishi hamda xulq-atvoriga ta'sir etuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni ilmiy jihatdan o'rganishga intilganlar. Natijada inson ruhiyati va xulq-atvorining murakkab mexanizmlariga oid muhim ilmiy qarashlar shakllangan. Xususan, shaxsning jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy va huquqiy me'yorlardan chetga chiqishi bilan bog'liq muammolar psixologiya fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Psixologiya fanida deviant, ya'ni og'uvchi xulq-atvorning turli ko'rinishlari, ularning kelib chiqish sabablari, motivlari va namoyon bo'lish mexanizmlari keng o'rganiladi. Ushbu masalalar pedagoglar, psixologlar, psixoterapevtlar hamda inson tarbiyasi va ruhiy rivojlanishi bilan shug'ullanuvchi boshqa mutaxassislar uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Deviant xulq-atvorning mohiyatini aniqlash va uni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, deviant xulq-atvor jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me'yorlardan barqaror ravishda chetga chiqadigan xatti-harakatlar majmui sifatida tavsiflanadi. Bunday holat shaxsning ruhiy jarayonlaridagi muvozanatning buzilishi, ijtimoiy muhitga moslasha olmasligi yoki o'z xulq-atvorini axloqiy va estetik mezonlar asosida nazorat qilish qobiliyatining pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli deviant xulq-atvor alohida bir harakat yoki muntazam takrorlanuvchi xatti-harakatlar tizimi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, og'uvchi xulq-atvor shaxsning faoliyati va xatti-harakatlari jamiyatda umum e'tirof etilgan me'yorlarga mos kelmaganda yoki u mansub bo'lgan ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan qadriyat va qoidalardan muntazam ravishda chekinishida namoyon bo'ladi. Bunday xulq-atvor shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ruhiy holati va atrofdagilar bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois deviant xulq-atvorni erta aniqlash, uning sabablarini o'rganish va profilaktik hamda korreksion choralarni amalga oshirish psixologiya va pedagogika fanlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda deviant xulq-atvorning shakllanishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Mazkur muammoni samarali hal etish uchun erta diagnostika, psixologik profilaktika, korreksion dasturlar hamda oila, maktab va jamoatchilikning hamkorligi zarur. Tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish, ularning ruhiy salomatligini mustahkamlash va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2020.
4. Shoumarov G'.B. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2019.
5. Albert Bandura. Social Learning Theory.
6. Urie Bronfenbrenner. Ecological Systems Theory.
7. World Health Organization. Adolescent Mental Health.
8. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.